

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONA XIZMATINING O`RNI

	<p style="text-align: center;"><i>Bozorova Jasmina Yusuf qizi</i> <i>QarDU, Turizm (faoliyat va yo`nalishlari bo`yicha) yo`nalishi talabasi</i></p>
--	---

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehmonxona xizmatining turizm industriyasidagi ahamiyatini va uning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatlarini tahlil qiladi. Mehmonxona xizmati turizm sektorining rivojlanishiga qanday ta`sir ko`rsatishi, sayohatchilar uchun qulayliklar yaratish, turistik tajriba sifatini oshirish va turizm infratuzilmasining asosiy bo`g`ini sifatida o`rni muhokoma qilinadi. Shuningdek, mehmonxona sohasining mahalliy iqtisodiyotga va ish o`rinlarini yaratishga qanday ta`sir ko`rsatishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy foydalari ko`rsatib o`tiladi. Mehmonxona xizmatining global turizm bozorida mamlakatlar imidjini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o`rni ham yoritib o`tilgan.

Kalit so`zlar: turizm, mehmonxona xizmati, iqtisodiy rivojlanish, mahalliy iqtisodiyot, global turizm bozor, mehmonxona turlari.

Tobora dunyo aholisining sayohat qilishga bo`lgan qiziqishi ortib borishi bilanoq insonlarning o`z mamlakatlari hududidan boshqa mamlakat hududiga tashriflar hajmi ham ortib bormoqda. Bu esa o`z navbatida dunyoga yangicha sanoatning vujudga kelishiga sabab bo`lmoqda, ya`ni bu sanoat “turizm sanoati”dir. Turizm sanoati bu yaxlit tizim bo`lib u ko`plab xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlarni o`z ichiga oladi. Mehmonxonalar ana shunday tarmoqlarning eng muhimi hisoblanadi. O`z navbatida bunday muhim sohani faoliyatini tartibga solish ham anchagina mas`uliyatni talab qiladi. Jahonda turizm va rekreatsiya sohasi iqtisodiyotning yetakchi va strategik tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Butunjahon turizm tashkiloti ma`lumotiga ko`ra, “...turizm daromadlilik darajasi bo`yicha uchinchi, tovarlar va xizmatlar eksportida to`rtinchi o`rinda, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa o`rtacha 10 foizni tashkil etmoqda...”. Bunday holat tarmoqda iqtisodiy o`shishni ta`minlovchi mehmonxona industriyasini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Turizm sohasining jadal rivojlanishi zamon bilan bog`liq bo`lib, iqtisodiy o`shish va madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirishda muhim rol o`ynaydi. Bu sohada mehmonxona xizmati alohida o`rin tutadi, chunki u turistlarning safar davomida to`liq qulaylik va xizmatlardan foydalanishini ta`minlaydi. Mehmonxonalarining sifatli xizmat ko`rsatishi turizm sohasini rivojlantirishda asosiy omillardan biri sifatida ajralib turadi.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo`jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o`zining munosib o`rniga ega bo`lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo`yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz jahon sivilizatsiya o`choqlaridan biri bo`lib, o`zining asori-atiqalari bilan mashhurdir. Bizning madaniyatimiz dunyo xalqlari san`at, arxitektura, shaharsozlik va ko`pgina sohalarga ulkan hissasini qo`shgan. Tarixdan ma`lumki, mintaqaning rivojlanishi ma`lum darajada turizmning ham hissasi bo`lgan. Chunki, mamlakatimiz “Buyuk ipak yo`li” markazida joylashgan, shuning uchun savdosi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar rivojlangan bo`lib, ulardan tushgan daromadlar mamlakat



xazinasiga katta ulush qo`shgan.

Ma`lumki, “O`zbekiston-2030” strategiyasi doirasida kelgusi yetti yillikda xorijiy sayyohlar soni 15 millionga, ziyorat turizmi bo`yicha keladigan sayyohlar sonini esa 3 millionga oshirish maqsad qilingan. Shu borada, so`nggi besh yil ichida O`zbekistonda mehmonxonalar xizmatlari bozori jadal rivojlanmoqda. Poytaxtda xususiy mehmonxonalar soni ortib bormoqda, sobiq mehmonxonalar rekonstruksiya qilinmoqda. Afsuski, mehmonxonalar soni o`shishi har doim ham xizmat ko`rsatish sifati va darajasining o`shishi bilan birga kelmaydi. Mehmonxonalar xizmati, birinchi navbatda, sayohatchilarning turistik tajribasini yanada yaxshilashga yordam beradi. Mehmonxonalar, o`zlarining turli xil imkoniyatlari bilan turistlarga nafaqat joylashish, balki madaniy va ijtimoiy tajriba olish imkoniyatini ham taqdim etadi. Shuningdek, mehmonxonalar xizmati turizm infrastrukturasi asosining bir qismini tashkil etadi, chunki u sayohatchilar uchun kerakli qulayliklarni, xavfsizlikni va dam olishni ta`minlaydi. Mehmonxonalar industriyasini rivojlantirishda bugungi kunda Toshkent shahri yetakchi hisoblanadi. Mehmonxonalar faoliyati Samarqand va Buxoro viloyatlarida ham jadal rivojlanmoqda, Xorazm viloyati va Farg`ona vodiysi ulardan birozdan orqada. Bugungi kunda O`zbekistondagi mehmonxonalar bozori umumiy aylanmasining 80 foizdan ortig`i Toshkentga to`g`ri keladi. Lekin har yili viloyatlar foydasiga asta-sekin o`zgaradi, chunki markazdan olisda joylashgan shaharlarda mehmonxonalar ko`paymoqda. Hududlarda 183 ta yangi mehmonxonalar (o`rinlar soni 11 342 ta) va 207 ta xostel (o`rinlar soni 7 237 ta) yangidan ishga tushdi. Jami joylashtirish vositalari soni 5 365 ta, ulardagi o`rinlar soni 142 038 taga yetkazildi. Xonadonlarda 333 ta oilaviy mehmon uyi (o`rinlar soni 3 092 ta) tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3 305 ta (o`rinlar soni 29 300 ta) ga yetdi.

Mehmonxonalar bugungi kunda eng istiqbolli va daromadli sohalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning xalqaro bozorga chiqishi va turizm sanoatining jadal rivojlanishi ishbilarmonlar va turistlarning mehmonxonalar segmentida taqdim etiladigan xizmatlarga qiziqishini kuchaytirdi va shunga mos ravishda malakali ishchilarga ehtiyoj ortmoqda. Ushbu yo`nalishni biznes-taklif sifatida jalb qilish, mehmonxonaga ega bo`lish obro`li va foydalidir. Bundan tashqari, globallashtirish sharoitida turizm va mehmonxonalar biznesini rivojlantirishda innovatsion tendentsiyalar muhim o`rin tutadi. Ushbu tendentsiyalar sanoat rivojlanishini jadallashtirish, ko`rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, sayyohlar uchun sayohat ta`surotini yaxshilash va barqaror rivojlanishga yordam beradi. Asosiy innovatsion tendentsiyalardan biri raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Mobil ilovalar, onlayn bron qilish, virtual sayohatlar va boshqa texnologiyalar sayyohlar uchun sayohatlarni rejalashtirish va tashkil etish jarayonini ancha soddalashtiradi. Ular, shuningdek, mehmonxonalar korxonalariga mijozlarni jalb qilish va samarali xizmat ko`rsatishda yordam beradi. Iqtisodiy sohada raqamli turizm tez o`sadigan innovatsion soha sifatida qaraladi. O`zbekistonda turizmni, jumladan, raqamli turizmni rivojlantirishga ilmiy yondashuv tobora ko`proq qo`llanilyapti. Bu innovatsion soha jadal sur`atlar bilan rivojlanmoqda va O`zbekiston ham chetda turmay, ham umumiy, ham raqamli turizmni rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Turistik oqimlarni tiklash va yaxshilash, shuningdek, turistlarning qolish xarajatlari va davomiyligini oshirish, shuningdek, ularning ta`surotlarini yaxshilash va takroriy tashriflar sonini ko`paytirish uchun kelgusida qaysi turizm xizmatlariga talab ko`proq bo`lishini aniqlash kerak. Shu maqsadda O`zbekiston Respublikasi Turizm qo`mitasi Axborot texnologiyalari vazirligi bilan birgalikda horeca xizmatlari sohasida silkroad.uz xalqaro axborot tizimini ishlab chiqdi. Silkroad.uz platformasi sayyohlarga turli xizmatlarni mustaqil va tezkor bron qilish imkoniyatini beradi, ro`yxatdan o`tish va to`lovlarni amalga oshirish jarayonini tezlashtiradi, bu esa mehmonlar uchun ham, turizm korxonalarini xodimlari uchun ham qulay bo`ladi. Mazkur tizim O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi 3724-son qarorida qayd etilganidek, elektron tijoratni rivojlantirishni qo`llab-quvvatlovchi



vositalardan biri hisoblanadi.

Mehmonxona - turizmning asosiy tarkibiy qismlaridan biri va turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehmonxona uydin talab vositalari bilan ajraladi. Mehmonxonaning turlari juda ko'p bo'lib, o'tgan o'n yilliklar davomida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. So'nggi yillarda ko'proq noan'anaviy va norasmiy mehmonxona turlariga talab ko'payadi. Mamlakatimizda asosan ma'lum ish yuzasidan nisbatan qisqa muddatga keluvchi odamlarga shuningdek, har xil maqsadda sayohat qilayotgan fuqarolarga mo'ljallangan umumiy tipdagi mehmonxonalar keng tarqalgan. Bunday mehmonxonalar shaharning markaziy qismida, jamoat, ma'muriy, savdo markazlari yaqinida joylashadi va shaharning turli-tumanlari bilan yaxshi transport aloqasini nazarda tutadi. Mazkur mehmonxonalar odatda maxsus ko'kalamzorlashtirilmagan nisbatan kichkina yer maydonlariga ega bo'ladi.

Hozirda jahonda ma'lum bo'lgan 30 dan ortiq tasniflash tizimlari zahirida shinamlik darajasi yotibdi. Dunyo bo'ylab quyidagi tasniflash tizimlari ayniqsa keng tarqalgan:

- “yulduzlar tizimi” yoki Yevropa tasniflash tizimi. Fransiya tasniflash tizimi asosida tuzilgan. Uning zahirida mehmonxonalarining 1 dan 5 yulduzgacha bo'lgan toifalarga ajratish yotadi. Bunday tizim Fransiya, Avstraliya, Vengriya, Misr, Rossiyada va boshqa bir qancha mamlakatlarida qo'llaniladi;
- “harflar tizimi” (A, B, C, D). Gretsiyada qo'llaniladi;
- “tojlar tizimi”. Buyuk Britaniyada amal qiladi;

Har bir davlatda mehmonxonalarini tasniflash mezonlari - shinamlik darajasi har xil tushuniladi, shuningdek davlatlarning madaniy-tarixiy va milliy an'analari bilan belgilangan bir qancha omillar jahonda mehmonxonalarining yagona tasnifni joriy etishga mone'lik qiladi.

Butunjahon turizm tashkiloti (BTT), Yevropa hamjamiyati, Mehmonxona va restoran sanoati qo'mitasi, Xalqaro mehmonxonalar uyushmasining bu yo'nalishdagi faoliyati hozircha samara bermayapti. BTT faqat joylashtirish vositalarining standart tasnifini taklif etgan. Bu tasnifda mehmonxonalar va shunga o'xshash korxonalar to'rt katta guruhdan biriga kiritiladi.

O'zbekistonda turizm sektorini barcha mintaqalarda rivojlantirish maqsadida “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli qarori qabul qilinganligi ham mamlakatimizda bu sohaga e'tibor qaratilyotganligi hamda turli turizmni rivojlantirish bo'yicha dasturlarning ishlab chiqilayotganligidan darak beradi. “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil” dasturi amalga oshirilgach, sayohat madaniyati o'zgara boshladi. Ichki turistik tashriflar 2016-yildagi 8,8 milliondan 2021-yilda 15 milliongacha o'sdi. So'nggi besh yil ichida jami 833 ta mehmonxona foydalanishga topshirildi. 2022-yil yakuniy holatiga ko'ra, mamlakatimizda jami 33,4 ming xonali 1442 turistik turar joy mavjud bo'lib, ulardagi umumiy o'rinlar soni 71,2 mingtaga yetdi.

Mehmonxonalarining turizm rivojiga qo'shgan hissasi, avvalo, turistlarga qulay yashash joyi taqdim etishda namoyon bo'ladi. Har bir turist mehmonxona tanlashda qulaylik, xavfsizlik va xizmat ko'rsatishning sifati kabi omillarga e'tibor beradi. Agar mehmonxona o'z mijozlariga yuqori sifatli xizmat ko'rsatsa, bu ularning qaytib kelishga hamda boshqalarga tavsiya etishiga olib keladi. Shuningdek, mehmonxona tarmog'ining rivojlanishi turizmni jalb qilishga yordam beradi, chunki ko'plab turistlar tashrif buyuradigan joylarda mehmonxonalarining ko'pligi va sifati o'rinli bo'ladi. Mehmonxona sohasining rivojlanishi nafaqat turizmni jalb qilish, balki mahalliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mehmonxonalar turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy



bizneslarga yordam berish va hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Ular shuningdek, xalqaro turizm bozorida mamlakatning imidjini mustahkamlashda katta rol o`ynaydi. Turizm sohasidagi mehmonxonalarning faoliyati turli sohalarda - chakana savdo, transport, oziq-ovqat sanoati va xizmat ko`rsatish sohalarida ish o`rinlarini yaratadi. Mehmonxonalarning ishlashi mahalliy xizmatchilarni ish bilan ta`minlaydi, yangi bizneslarni rivojlantirishga yordam beradi va davlat byudjetiga soliq tushumlarini oshiradi.

Mehmonxona xizmatlari turizm turlarining diversifikatsiyasiga ham yordam beradi. Masalan, sog`lomlashtirish, biznes, ekoturizm, madaniy va sport turizmi kabi turli yo`nalishlarda mehmonxona xizmatlarining maxsus turlari mavjud. Bu esa turistlarga turli ehtiyoj va talablariga moslashgan xizmatlarni taklif qilishga imkon beradi. O`zining maxsus xususiyatlari bilan mehmonxonalar har bir turizm turiga mos xizmat ko`rsatishni ta`minlaydi, bu esa o`z navbatida turizm sohasining turli yo`nalishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Turizmning madaniy almashinuvdagi roli ham mehmonxonalarga bevosita bog`liqdir. Mehmonxonalar nafaqat turistlarga qolish joyi taqdim etadi, balki ular mahalliy madaniyat va an`analarga kirish, boshqa millat va xalqlarning madaniyatini o`rganish imkoniyatini yaratadi. Mehmonxona xizmatlari orqali turistlar, o`z navbatida, mahalliy an`analar, taomlar, san`at va boshqa madaniy yodgorliklar bilan tanishadilar. Buning natijasida global miqyosda madaniy aloqalar va o`zaro tushunish kuchayadi.

Hozirgi kunda turizmدا ekologik masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mehmonxonalarning barqaror rivojlanishi va ekologik toza xizmatlar taqdim etishi ham turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ko`plab mehmonxonalar energiya tejash, suv resurslarini samarali ishlatish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik jihatdan barqaror bo`lishga intilmoqda. Bu faqat ekologiya nuqtai nazaridan muhim emas, balki ekologik ongli turistlarni jalb qilishda ham samarali.

Xulosa qilib aytganda, mehmonxona xizmati turizm sohasining ajralmas qismi bo`lib, rivojlanishida markaziy o`rin tutadi. Bu sohada amalga oshirilgan investitsiyalar va sifatli xizmatlar turizmning jadal o`shishiga, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va global turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Mehmonxona tarmog`ining mustahkamlanishi va diversifikatsiyasi, shuningdek, mahalliy iqtisodiyot va madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo`shadi. Shuning uchun mehmonxona xizmatining sifatini oshirish, turizmni rivojlantirishda muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mamasoliyev F.M. “Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni Davlat tomonidan tartibga solish ” // Iqtisodiyot va moliya. 2020. No1. 24-30-betlar
2. Pardayeva M., Xoliqulov A. Mehmonxona xo`jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. Monografiya. T.: Iqtisodiyot, 2013-y.
3. Mamatqulov X. Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil etish. O`quv-uslubiy qo`llanma. Samarqand. SamISI, 2011-y.
4. Adilova Z., Norchayev A., Aliyeva M. Turizm menejmenti. O`quv qo`llanma . - T.: TDIU, 2011, - 180-b.

